

**TORTISHUV TAMOYILINI AMALGA OSHIRISHDA
HIMOYACHINING PROTSESSUAL IMKONIYATLARI**

Toshkent davlat yuridik universiteti

*Advokatlik faoliyati
mutaxassisligi talabasi*

Raximova Surayyo Islom qizi

e-mail:

surayyorakhimova5@gmail.com

Kirish

Jinoyat protsessida tortishuv tamoyili adolatli sudlovning markaziy elementlaridan biri bo'lib, u taraflar o'rtasida real protsessual tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Mazkur tamoyilning samarali amal qilishi bevosita himoyachining faol va mustaqil ishtirokiga bog'liq. Biroq milliy jinoyat protsessida ushbu tamoyil ko'proq deklarativ xarakter kasba etib, amaliyotda uning to'liq realizatsiyasi ta'minlanmayotgani kuzatilmoqda.

Amaldagi qonunchilik, xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87-moddasi himoyachiga dalil to'plash va ularni taqdim etish huquqini beradi. Biroq ushbu norma amaliy jihatdan samarali ishlamaydi. Chunki dalil tushunchasini belgilovchi 81-modda dalillarni asosan tergov organlari va sud tomonidan shakllantiriladigan faktik ma'lumotlar bilan bog'laydi. Natijada, himoyachi tomonidan to'plangan materiallar ko'pincha to'liq huquqiy dalil maqomiga ega bo'la olmaydi.

Bu holat ilmiy adabiyotlarda ham tanqid qilinadi. Xususan, quyidagi tadqiqotda qayd etilishicha:



“Dastlabki tergov bosqichida himoyachining dalil to‘plash imkoniyatlari formal jihatdan mavjud bo‘lsa-da, ularning real amalga oshirilishi protsessual mexanizmlar bilan yetarli darajada ta‘minlanmagan”¹

Mazkur fikr jinoyat protsessida mavjud asosiy muammoni — normativ va amaliy holat o‘rtasidagi tafovutni ochib beradi. Ya‘ni, qonunchilik himoyachiga keng vakolatlar bergandek ko‘rinsa-da, ularning real amalga oshirilishi institutsional jihatdan cheklangan.

Sh. Isroilov tomonidan ilgari surilgan quyidagi ilmiy xulosa ushbu muammoning mohiyatini yanada chuqurlashtiradi:

“Dalillarni to‘plash faqat ularni aniqlash bilan cheklanmaydi, balki ularni protsessual jihatdan mustahkamlash va rasmiylashtirishni ham o‘z ichiga oladi”².

Aynan shu nuqtada himoyachining protsessual imkoniyatlari keskin chegaralanadi. Chunki u dalil yig‘ishi mumkin, ammo uni protsessual shaklda mustahkamlash vakolatiga ega emas. Natijada himoyachi faoliyati “yarim protsessual” xarakter kasb etadi.

Bu holat boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham tasdiqlanadi:

“Advokat tomonidan to‘plangan ma‘lumotlar mustaqil dalil sifatida emas, balki protsessual tekshiruvni talab qiluvchi axborot sifatida baholanmoqda”³.

¹ Ishni sudga qadar yuritish bosqichida tortishuv prinsipining ta‘minlanishi va uning himoyachi faoliyatidagi ahamiyati // *Cyberleninka*. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ishni-sudga-qadar-yuritish-bosqichida-tortishuv-prinsipining-ta-minlanishi-va-uning-himoyachi-faoliyatidagi-ahamiyati/viewer>

² Isroilov Sh.I. Jinoyat ishlarida dalil tushunchasi va ularni to‘plash hamda mustahkamlash faoliyati // ilmiy maqola.

³ Jinoyat protsessida advokat tomonidan to‘plangan ma‘lumotlarning huquqiy tabiati // ilmiy maqola.

URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/122313>

Mazkur yondashuv amalda himoyachini protsessual jihatdan ikkilamchi subyektg aylantiradi. Natijada jinoyat protsessi real tortishuv shaklini emas, balki ayblov tomonining ustunligi asosida shakllangan modelni aks ettiradi.

Xorijiy yondashuvlar bu masalaga mutlaqo boshqacha pozitsiyadan qaraydi. Andrew Ashworth va John Jackson tomonidan ishlab chiqilgan “equality of arms” konsepsiyasiga ko‘ra:

“Taraflar o‘z ishini himoya qilish uchun dalillarni yig‘ish va taqdim etishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim”.

Mazkur prinsip faqat formal tenglikni emas, balki, real imkoniyatlar tengligini nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, milliy jinoyat protsessida himoyachining protsessual imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan va bu tortishuv tamoyilining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jinoyat protsessida himoyachining protsessual imkoniyatlari normativ jihatdan mavjud bo‘lsa-da, ularning amaliy realizatsiyasi tizimli cheklovlar bilan bog‘liq. Bu esa tortishuv tamoyilining mazmunan emas, balki formal amal qilayotganini anglatadi.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun himoyachining dalil to‘plash vakolatlarini kengaytirish, unga dalillarni protsessual mustahkamlash imkoniyatini berish hamda taraflar o‘rtasida real protsessual tenglikni ta‘minlovchi mexanizmlarni joriy etish zarur. Aks holda, jinoyat protsessida tortishuv tamoyili o‘zining asosiy vazifasini — adolatli sudlovni ta‘minlash funksiyasini to‘liq bajara olmaydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida tortishuv prinsipining ta'minlanishi va uning himoyachi faoliyatidagi ahamiyati // Cyberleninka. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ishni-sudga-qadar-yuritish-bosqichida-tortishuv-prinsipining-ta-minlanishi-va-uning-himoyachi-faoliyatidagi-ahamiyati/viewer>
2. Isroilov Sh.I. Jinoyat ishlarida dalil tushunchasi va ularni to'plash hamda mustahkamlash faoliyati // ilmiy maqola.
3. Jinoyat protsessida advokat tomonidan to'plangan ma'lumotlarning huquqiy tabiati // ilmiy maqola. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/122313>

